TA’LIMNI JARAYONINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Samatova Dilrabo Yusufovna
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, o‘qituvchi-o‘quvchi faoliyatining axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bilan birga pedagogik olimlarning mazkur mavzu yuzasidan ilgari surilgan ilmiy qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so‘z: ta’lim jarayoni, interaktiv doska, planshet, AKT, texnologik yondashuv, pedagogik texnologiya, axborot almashish, kompitentlik

Annotation: This article analyzes the pedagogical capabilities of digital technologies in the organization of the educational process, the possibilities of using information technologies in the activities of teachers and students, as well as the scientific views of educational scientists on this topic.

Keyword: educational process, interactive whiteboard, tablet, ICT, technological approach, pedagogical technology, information exchange, competence

Bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish masalalari kompyuter texnologiyalarisiz hal etilmaydi. Chunki zamon shiddat bilan o‘zgarayotganda axborot bilan ishlashning turli vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga tez suratlarda kirib kelmoqda. Talaba-yoshlarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalari aksariyat hollarda hayotdan, ya’ni amaliyotdan olgan tajribalari asosida rivojlanmoqda.

Ma’lumki, bugungi kunda har bir OTM kompyuter sinflari hamda mutaxassislar bilan yetarli darajada ta’minlangan. Biroq bu kabi sharoitlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish uchun o‘qituvchining o‘zida AKT yoki raqamli o‘qitish usullariga motivatsiya yetishmayapti. Natijada ayrim o‘qituvchilar faqatgina ochiq darslarda(shunda ham o‘zgalarning ko‘magi ostida) gina AKT dan foydalanib dars o‘tmoqdalar. Bu holat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ma’lum bir to‘siqni yuzaga keltiradi. O‘z o‘rnida yoshlarning ko‘z o‘ngida o‘qituvchining mavqeni saqlab qolish masalasi ustida ishlash talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-sonli Farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” yo‘nalishida “...umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish” nazarda tutilgan.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimini tubdan yangilash, uning samaradorligini oshirish ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va kasbiy ehtiyoj sifatida maydonga chiqmoqda. Sababi, texnologik

yondashuv negizida tayyor bilimlarni o‘zlashtirish asosiy maqsad bo‘lmay, mustaqil tanlash, mustaqil bilim egallash, mustaqil qaror qabul qilish va erkin fikrlar ko‘nikmasini shakllantirishni obyektiv zaruriyatga aylantirish orqali talabada intellektual salohiyatni rivojlantirish talabi vujudga kelmoqda. Buning uchun talaba yoshlarni sezgir, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, ayni shu vaziyat uchun tezkor obyektiv qaror qabul qila biladigan, malakali mutaxassis qilib tayyorlashda an’anaviy pedagogikaga tayanib ish yuritish kamlik qiladi. Texnologik yondashuvga oid nazariy-emperik tadqiqotlarning ko‘pligiga qaramasdan, an’anaviy ta’lim berish tajribasi ustuvor bo‘lib qolmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga hamon o‘zi dars beradigan o‘quv predmetini o‘qitishga oid ko‘nikmalar shakllantirilmoqda. Zamon talabiga mos, texnologik yondashuv asosida puxta o‘zlashtirgan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan qarashlar N.N.Azizxodjayeva, U.SH.Begimqulov B.R.Djurayeva, F.R.Yuzlikayev, O.Haydarova, SH.Sharipovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Pedagogik qarashlar Y.A.Komenskiy tomonidan 1632 yilda yozilgan “Buyuk didaktika” asari mazmunida ilk bor ilmiy asoslangan. U ta’limni tashkil etishning qonun-qoidalari, prinsiplari, o‘quv yili, ta’tillar, o‘quv choraklari, talabalarni maktabga bir vaqtda, ya’ni kuzda qabul qilish, sinf-dars tizimi, talaba faoliyatini baholash kabilarni joriy etdi. Uning pedagogika nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi, bolani yosh davrlarga bo‘lib, axloqiy tarbiyalash kabi prinsiplari ustuvor ahamiyatga ega.

Y.A.Komenskiyning g‘oyalari dunyo maktablarida hozirga qadar qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsa-da, yuqorida ta’kidlanganidek, uchinchi ming yillikda ilg‘or pedagogik texnologiyalar tatbiqi asosida o‘quvchi-talabaning aqliy zakovati, erkin fikrlash hamda mustaqil faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash davr ehtiyojiga aylandi. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kun talablari bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat kasbiy, balki siyosiy, huquqiy madaniyati va ongini oshirish, faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashni taqozo etadi. Bu esa, talabalarda kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik texnologiyani puxta o‘zlashtirishga intilish orqali amalga oshishi mumkin.

Shunga muvofiq, pedagogik texnologiyalar davr taqozosi bilan pedagogika fani tizimida shakllangan esa-da, birdaniga fan yoki tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqmaganligi ma’lum. Bu tushuncha dastlab XX asrning o‘rtalarida AQShda qo‘llanila boshlagan. U rivojlangan davlatlarda ta’lim sohasidagi siyosatning asosiy vazifasi sifatida olib qaralgan. Bu siyosat YUNESKO tomonidan ham ma’qullangan. Uning tarixan kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari, xorij tajribalari yutuq va kamchiliklari alohida tadqiqot obyekti ko‘rinishida tahlil etilganligi bois, biz uni tadqiqot mavzusiga ko‘ra ixtisoslik fanlari qatorida o‘rganishni nazarda tutdik. Chunki texnologik yondashuv mazmuni pedagogik texnologiyalar tatbiqi va uning samaradorligi bilan bog‘liq.

Ta’lim tizimida texnologik yondashuvning ustuvorlik kasb etishi pedagogik tafakkurda ham sezilarli darajada aks etmoqda. Bu jarayonning negizini tashkil etuvchi innovatsion-kreativ g‘oyalar tatbiqi ijtimoiy faol, raqobatdosh shaxsni shakllantirish muammosiga qaratilmoqda. Bugungi kun o‘qituvchisi eng yaxshi pedagogik g‘oyalar, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy meyorlarning targ‘ibotchisi va namunasi sifatida o‘quvchi oldida gavdalanmog‘i lozim. Texnologik yondashuv asosida talabalarining mustaqil, individual fikriy taraqqiyoti va tafakkurini kengaytirishni talab qiladi. I.A.Kolesnikova ta’kidaganidek, texnologik yondashuv jarayonida pedagogning faoliyati ongli, erkin, maqsadga yo‘naltirgan, talabalarning tanloviga asoslangan bo‘lishi lozim. Bunda texnologik yondashuv texnologiyalarini asosiy sharti sifatida ta’lim oluvchining imkoniyatlarini kengaytirish orqali unga ta’lim-tarbiya berish jarayonida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining individual va jamoaviy qiziqish-xohishlarini inobatga olishi lozim.

YE.V.Bondarevskiy texnologik yondashuv jarayonini pedagog madaniyatini yuksak namunasida ko‘radi va pedagog faoliyati insonparvarlik prinsipiga asoslangan bo‘lishi kerakligini e’tirof etadi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning faoliyati professor-o‘qituvchilarning faoliyati bilan uyg‘unlashtirilsagina texnologik yondashuv jarayonini tashkil etishda muvaffaqiyatga erishilishi mumkin. Tadqiqotchining keltirgan farazi asosida pedagogikaning yaxlitliylik tamoyili asosida ta’lim-tarbiyaga yondashish yotadi.

Tadqiqotga oid izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, texnologik yondashuv mazmunidagi innovatsion g‘oyalarga tizimli yondashilganda didiktik jarayon o‘z yechimini topib boradi. Aks holda, talaba faoliyati reglamentlashgan, nazorat esa, markazlashgan holda qolib, an’anaviy “subyekt-obyekt” pedagogikasida o‘qituvchi tayyor bilimlarni berib, talabalar takrorlash, quruq yodlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu jarayon talabadagi mustaqil fikr, ijtimoiy faollik hamda ijodiy faoliyatni cheklanib qolishiga olib keladi. Talabaning aqliy zakovati, erkinligi, mustaqil faoliyat yuritish qobiliyati to‘laqonli ta’min etilmasa, ta’limda avtoritar yondashuv, ya’ni, avtoritar pedagogika ustuvor bo‘lib, o‘qituvchi yagona axborot manbai, yagona tashabbuskor, talaba passiv tinglovchi, axborotni shunchaki qabul qiluvchiga aylanib qoladi.

Texnologik yondashuv mazmunida o‘qituvchi va talaba faoliyati “subyekt-subyekt” munosabatlari qonuniyatlari asosida tashkil etilmog‘i, o‘zaro hamkorlik, hamfikrlik, hamijodkorlik va do‘stona munosabatlar ta’min etilib, ta’lim-tarbiya mazmuni innovatsion g‘oyalar bilan boyib borilmog‘i lozim. Innovatsiya-bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak .

Ma’lumki, innovatsion g‘oyalarni yaratishda o‘qituvchi muammoni ko‘ra bilishi, muammoli vaziyatlar yaratishi va muammoli vaziyat yechimini topuvchi harakat rejasini belgilab olishi lozim. Aynan shu joyda, mutaxassis ko‘ra bilgan yoki tanlangan yechim muammoni hal etish uchun qaratilgan g‘oya sifatida maydonga chiqadi.

G‘oya dars mazmuni, ya’ni prinsiplari, metodlari, metodikasini yangilash hamda takomillashtirishga qaratilgan negiz hisoblanadi. G‘oya nazariy va amaliy tavsiflarga ega bo‘lib, yangi g‘oya amalda tajriba-sinovdan o‘tkazish orqali kasbiy pedagogik faoliyatda e’tirof etilishi lozim. Demak, g‘oya yangi va eski bo‘lishi ham mumkin. Ko‘rib o‘tilganidek, yangi g‘oyani joriy etish pedagogika fanida muayyan metod, usul va metodikani talab qiladi. Masalan, ilm asosida bilim berish prinsipida ilmiy jamiyatni tasavvur qilish g‘oyasi; buyuk allomalarimizning munosib vorislari bo‘lish g‘oyasi; pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan bilimlarni kafolatli o‘zlashtirish g‘oyasi va hokazo.

Innovatsion g‘oyalarga asoslangan bilim berish maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni nazariy jihatdan puxta o‘zlashtirgan va uni izchil ravishda dars jarayoniga tatbiq eta oladigan professor-o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda noan’anaviy darslarni tashkil etish, unda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masofaviy ta’limni amalga oshirish yoki unda ishtirok etish (jumladan, video konferensiyalar, videoseminar, video maslahatlar); ilg‘or texnologik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish; muammoli vaziyatlarni tashkil etish va yechimlarini topish; pedagogik texnologiyalar tatbiqini takomillashtirib berishga oid qo‘llanmalar tayyorlash, ilmiy-amaliy anjumanlar hamda seminar-treninglar o‘tkazish kabilarni joriy etilishi nazarda tutiladi. Bu kabi yondashuvlar S.V.Belova tomonidan ilgari suriladi uning nazarida bugungi kunda o‘qituvchining bajaradigan ishlarining bir qismi AKT olgani, bu esa, o‘qituvchi faoliyatini, imkoniyatini yangi bosqichga olib chiqqani bilan ijobiy baholaydi. Shunga ko‘ra, dunyo miqyosida an’anaviy pedagogikaning obyektiv imkoniyatlari cheklanganligi tan olinib, innovatsion pedagogika, ya’ni pedagogik texnologiyalar rivojiga e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumki, metodologiya ilmiy bilish yo‘nalishlari va vositalarining nazariy muammolarini, shuningdek, ijodiy jarayon sifatida ilmiy-tadqiqot qonuniyatlarini o‘rganadi. Pedagogik texnologiya muammolarini yechimiga qaratilgan metodologik yondashuvni o‘rganish va hal etish nafaqat pedagogik turkum fanlarni chuqur o‘rganishni, balki uning hal etilmagan qirralarini ko‘ra olishni ham taqozo etadi. Professor-o‘qituvchi o‘zining metodologik bilim va madaniyatini muntazam ravishda takomillashtirib borsagina pedagogik texnologiyaga oid dolzarb muammolarni ko‘ra oladi.

Tadqiqotchi O.Q.Haydarovaning “Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, da talaba-yoshlarni ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlashning omillari, nazariy va amaliy asoslari tizimli ravishda ko‘rsatib berildi. Shuningdek, professor M.Xakimova tomonidan 2019 nashr etilgan

“Ta’lim tizimiga texnologik yondashuv” nomli monografiyasida muallif tomonidan ta’lim jarayonida texnologik yondashuvning o‘ziga xos bosqichlari keltirilgan. Umuman olganda, texnologiya odatiy hol emas, zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur usuli, deb xulosa qilish mumkin. Texnologiya bu – predmetli sohaning obyektiv qonuniyatlarini yuqori o‘lchovda aks ettirilgan va shu boisdan, muayyan sharoit uchun natijalarning o‘rnatilgan maqsadlarga mos kelishini ta’minlaydigan faoliyatdir. Texnologiya (jarayon sifatida) uchta belgi bilan tasniflanadi:

jarayonni o‘zaro bosqichlarnga taqsimlash;

izlanayotgan natija (o‘rnatilgan maqsad)ga erishishga qaratilgan harakatlarni muvofiqli va bosqichli bajarish;

qo‘yilgan maqsadlar mos natijalariga erishishning zaruriy yetakchi sharti hisoblangan texnologik muolaja va amallarni bajarishning ahamiyat kasb etishi xususiyatlarini biz bevosita, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda texnologik yondashuv mazmunida darsni tahlil etish ko‘nikmalarini o‘rgatishda pedagogik yondashuv va metodologik asos sifatida foydalandik. G.B.Ananyev, A.A.Bodlayev, N.V.Kuzminalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ta’lim tizimidagi shaxsning shakllanishiga nisbatan akmeologik yondashuvlar ilgari surilgan. Tadqiqotchilar pedagogik faoliyatni o‘qituvchining fikriy-ijodiy, kasbiy faolligini namoyon etishda ko‘radi va bu texnologik yondashuv texnologiyalarining muhim qirralari deb baholaydi. Tadqiqotchi H.Abdukarimov tomonidan texnologik yondashuv mazmunida dars tahlili va uning metodikasi ishlab chiqildi. Bunda, asosan o‘qituvchi shaxsining bilimdonligi, dars jarayoniga mas’uliyat bilan tayyorgarlik ko‘rish masalasi diqqat markaziga qo‘yildi. M.Aliqulova 2012 yilda nashr etilgan “Innovatsion pedagogika” qo‘llanmasida darsga kirish va uni tahlil etish zaruratiga alohida to‘xtaladi: o‘qituvchi o‘zini har doim anglash majburiyati va dars tahlili turlariga, shuningdek, hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan milliy tarbiya elementlariga alohida e’tibor qaratgan”. Muallif tomonidan dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlarini yettita jihatini ko‘rsatgan va uning tadqiqotida darsniing maqsadi va vazifalarini qo‘yishi to‘rtinchi bosqichda turibdi. Tadqiqot ishimizning birinchi bosqichida maqsad va vazifa turadi. Yangi zamonaviy dars tahliliga talablarni tadqiqotchi olim V.V.Ioxidov tomonidan tadqiq etilgan. Unga ko‘ra, olim zamonaviy dars tahliliga to‘rtta guruhli talablarni qo‘yadi. Shuningdek, darsni tahlil etishda asosiy e’tibor dars jarayonida o‘qituvchi emas, balki o‘quvchining dars jarayonidagi faoliyati va bilimini o‘zlashtirishiga qaratadi. Dars tahlilida har bir tekshiruvchi va o‘qituvchining o‘zi quyidagi tamoyillardan foydalanadi; ilmiylik, talab birligi, darsni tahlil etishda ochiqlik, maxsus jadvalni mavjudligi va maqsadga yo‘nalganlik. Bizningcha, V.V.Ioxidov tomonidan keltirilgan tamoyillarni qo‘llashda, ilmiylik tamoyilini belgilashda maqsadni to‘g‘ri qo‘yish lozim .

Mohiyatan inson o‘z so‘zi bilan yaralmog‘i lozim. O‘z so‘zi va ovoziga ega bo‘lgan shaxs mustaqil va ijtimoiy faol bo‘ladi. Bu o‘rinda o‘quv predmeti va fan sifatida pedagogik texnologiyalarning o‘rni qanday? - degan savol tadqiqotchi olimlar R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayevlar tomonidan tayyorlangan “Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar)”ni o‘rganib qaraydigan bo‘lsak, birinchidan, ushbu qo‘llanma sodda, ravon, tushunarli tilda yozilganligi, qo‘llanmada keltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda, o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning o‘qituvchi mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda soddalashtirishi yoki bir muncha takomillashtirishi mumkinligiga imkoniyat berilgan. Metodlarni an’anaviy, zamonaviy va ilmiy-tadqiqot metodlariga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. Faoliyat asosida o‘zlashtirilgan bilimlar tezroq talabaning mulkiga, e’tiqodiga aylanadi. Amaliy faoliyat, ta’lim sifati yanada takomillashadi.

“Yangi pedagogik texnologiyalar” bo‘yicha professor M.Ochilov o‘qigan ma’ruza matnlarining o‘quv qo‘llanma sifatida chop etilishi, ta’lim-tarbiyaga tizimli yondashish yo‘llarini yanada oydinlashtirdi. Qo‘llanmada muallif ta’lim-tarbiya jarayoniga: an’anaviy, tizimli, texnologik va tadqiqiy-ijodiy yondashuvlarni sodda va ravon tilda yoritib bergan. Texnologik yondashuv mazmunida “Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, “Texno”- mahorat, san’at, logos – tushuncha, ta’limot ma’nolarni anglatadi, deb ko‘rsatgan. Bu tushunchaning mazmunan isbotini professor V.P.Bespalkoning qarashlarida ham ko‘rish mumkin .

Tadqiqotchi olim A.A.Alimov tomonidan 2018 yilda himoya qilingan pedagogika fanlari falsafa (PhD) doktorlik ishida lateral (ijodiy yondashuv) fikrlash orqali o‘quv vaziyatlarini ishlab chiqish va bajarish jarayoniga e’tiborini qaratadi. Ayni o‘quv vaziyatlarini ishlab chiqish tartibidan biz dars tahlilini tashkil etish va o‘tkazishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan omil sifatida baholaymiz. O‘quv vaziyatlari, o‘quv dasturining elementlari bo‘lib, o‘qish va o‘rganish jarayonini tashkil etishda o‘quv maydonini aniqlashtiradi:

ta’lim maqsadiga va kasbiy malakalarni egallashga yo‘naltiradi;

faoliyatga yo‘naltirilgan holda ifodalaniladi;

topshiriqni bajarishda vazifalarni har tomonlama ishonchli qo‘ya oladi;

mutaxassislik bo‘yicha nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi;

o‘zida mustahkam o‘zaro bog‘langan harakatlarini namoyish qiladi. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan o‘quv vaziyatlari:

1. Tahlil qilish va rejalashtirish.
2. Rejalashtirish bo‘yicha na’munaviy o‘quv dasturi tahlili.
3. Ta’lim muassasalari yoki tashkilotida namunaviy va ishonchli harakat maydonlari va o‘quv maydonlari tahlili.
4. Talabalarning dastlabki bilimlar tahlili.
5. O‘quv fanlari va o‘quv maydonlari orasidagi bog‘liqlikni o‘rganish.
6. O‘ziga hos qabul qilingan shartlar, ya’ni talabalar soni va bilim darajalaridan texnologik yondashuv asosida dars tahlil qilishning turlari.

1. Ta’limiy maqsad – o‘quv materialining mazmunini bilishi, ya’ni ushbu fanga taalluqli mavzu yuzasidan tegishli ilmiy bilimlarini o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish.

2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslariga oid mavzularni o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g‘oyalar, fikrlar, dunyoqarashlar ta’sirida o‘zining shaxsiy sifatlari, fazilatlari, iymon-e’tiqodini shakllantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad – ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlar uyg‘unligida shaxsning bilish, mantiqiy tafakkur, kasbiy qobiliyati, aqliy kamoloti, ijodiy mehnat faoliyatiga bo‘lgan munosabati hamda tugal dunyoqarashini takomillashtirishdan iborat.

Bundan tashqari, texnologik yondashuv texnologiyasida rivojlantiruvchi maqsadning asosiy funksiyasi sifatida yo‘naltiruvchi maqsadni keltirishni joiz topdik. Yo‘naltiruvchi maqsad, talabaga tegishli fan asoslariga qiziqish orqali ongli va asosli ravishda kasbiy faoliyatni mustahkamlashga zamin yaratadi. Ta’kidlash joizki, shu narsani pedagogik texnologiyalar tatbiqida “shakllantirish”, “rivojlantirish”dan so‘ng “takomillashtirish” keladi. Aksariyat hollarda birdaniga “takomillashtirish” deyiladi. Pedagogik nuqtai-nazaridan “shakllantirish”ning o‘zi qiyin ekanligini, uning o‘ziga xos qonuniyatlari va prinsiplari borligi ko‘pincha hisobga olinmaydi. Rivojlantirishda ham xuddi shunday fikrlash lozim. Rivojlantirish undanda qiyin kechadigan jarayon bo‘lib, uning maqsadi va vazifalari bor. Rivojlantiruvchi maqsaddagi takomillashtirishni o‘z o‘rnida qo‘llanilgan deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat.-T.: “O’qituvchi” NMIU, 2010.-160 b.
2. Abdukarimov H. Dars tahlili va uning metodikasi. O’quv-metodik qo’llanma.- T.: Mumtoz so’z, 2010.-40 b.
3. Azizxo’jaeva N.N Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent.: O’qituvchi,1992. -160 b.
4. Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq - T.: O’qituvchi, 1992. - 160 b.
5. Alimov A.A. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. ped. fan. (PhD) diss.aftoref.., Toshkent - 2018, 65-70 b.
6. M.M. Aliqulova Innovatsion pedagogika uslubiy qo’llanma / Toshkent.: “TDIU” nashriyoti – 2012 y. 54 b.